

## SOLIQDAN BO'YIN TOVlash SABABLARINING ILMIY-AMALIY TADQIQI

*Bank-moliya akademiyasi magistranti  
Atoqulov Abdulla Askarjon o'g'li  
[Atokulov\\_a@gmail.com](mailto:Atokulov_a@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash sabablari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni faoliyat yuritishida soliqdan qochish holatlari, soliq to'lashdan bo'yin tovlash qoidalar va qoidalarga rioya qilish qilish haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, respublikamizdagi soliq qarzi ortishining soliqlar va boshqa majburiy to'lovlari tushumiga bog'liqligi tahlil etilib, xorij tajribasiga tayangan holda ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar soliqdan bo'yin tovlash holatlari oldini olish soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirish orqali respublikamizning barqaror iqtisodiy o'sishi uchun xizmat qilib, byudjet daromadlarini oshirish yo'llari bo'yicha tadqiqot olib borilgan bo'lib, mavzu doirasida iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari o'rganilib, xulosa va takliflar shakllantirildi.

**Kalit so'zlar:** mahalliy soliq, soliq qarzi, qarzdorlik, soliq majburiyati, soliqqa oid huquqbuzarlik, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq to'lashdan bo'yin tovlash, yashirin iqtisodiyot, soliqlar to'lashdan qochish, soliq majburiyatlari.

**Annotation:** this article discusses the reasons for tax evasion, cases of tax evasion in the functioning of business entities, compliance with tax evasion rules and regulations. Also, the dependence of the increase in tax debt in our republic on the income of taxes and other mandatory payments was analyzed and scientific proposals and practical recommendations were developed, relying on foreign experience. Developed proposals and recommendations prevention of tax evasion through the improvement of tax administration, a study was carried out on ways to increase budget revenues, serving for the sustainable economic growth of our republic, within the framework of the topic, the research of economic scientists was studied, conclusions and proposals were formed.

**Keywords:** local tax, tax debt, arrears, tax liability, tax infringement, tax revenue, tax benefits, tax evasion, hidden economy, tax evasion, tax liabilities.

### **Kirish**

Yashirin iqtisodiyot mahsulot va xizmatlarni iqtisodiyot sub'ektlari tomonidan yashirin tarzda ishlab chiqarish, soliqlardan qochish orqali noqonuniy daromad orttirishga asoslanadi. Uning yuzaga kelishiga davlatning iqtisodiyotga ortiqcha aralashuvi, qonunchilikdagi muammolar, soliq yuki yuqoriligi va biznes muhiti yaxshi

emasligi sabab bo‘ladi. Ko‘plab tadbirkorlar yashirin (noqonuniy) daromad orttirishi oqibatida yig‘ilgan mablag‘larning soliq uchun to‘lanadigan qismi ham soliqlardan qochuvchi nohalol shaxslar cho‘ntagiga tushmoqda.

Qonunda belgilangan tartibda faoliyat yuritish, daromadiga yarasha soliq to‘lash har bir fuqaroning majburiyati bo‘lsa-yu, bu mas’uliyatni aksariyat insonlar nega his qilishmaydi? Ular to‘laydigan soliqlar mamlakat iqtisodiyoti uchun muhimligini nima uchun anglashmaydi? Bundagi bosh faktor soliq tizimidagi muammolarga borib taqalar, ehtimol. Odamlar nega soliq to‘lashdan qochishadi? Chunki soliq yuki yuqori, soliqqa tortish tizimi nomukammal, aholining davlat organlariga bo‘lgan ishonchi past darajada. Ayrimlarda «mablag‘im qanchaligini ochiqlamasam, tortib olishga urinishlari mumkin», degan qo‘rquv ham bor hattoki.

Ikkinchi omil esa insonlarda pul jamg‘arishga bo‘lgan moyillik, nima qilib bo‘lsa-da farovon yashashga intilish, kamxarj va oz mehnat bilan ko‘p daromad olishga erishish istagi kuchliligida. Shuningdek, ijtimoiy tabaqlashuv, ayovsiz raqobat, yuqori inflatsiya ham soliqlardan qochishga va oqibatda yashirin iqtisodiyot qaror topishiga xizmat qilmoqda.

Mutaxassislarning aytishlaricha, aholining ko‘pchiligi bugungi soliq turlaridan, ular nimalar hisobiga to‘lanishi, tizimdagи o‘zgarishlar va boshqa zarur ma'lumotlardan to‘liq boxabar emas. Demak, dastlabki masala xabardorlikni oshirish kerak.

Ayni paytda respublikada 9ta soliq turi mavjud. Albatta, ularning o‘lchovi turlicha. Mutaxassislarning aytishicha, respublikada soliq yuki ko‘rsatkichi u qadar yuqori emas. Hisob-kitoblarda uning umumiyligi miqdori 23-24 foizni tashkil qilishi aniqlangan. Ammo oddiy aholining aksariyati mazkur foizlarni kam yoki o‘rtacha deya olmaydi. Shuning uchun ham yashirin daromad olishga urinishlar doimiy refleksga aylangan.

Ayrim moliyachilar orasida «soliq yuki xufiyona iqtisodiyot yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi deyish noto‘g‘ri», degan qarashlar ham mavjud. Ammo soliqlardan qochishga sabab ularning yuqoriligidagi emasmi?

Soliqlar to‘lashdan qochishdagi muammolardan biri sifatida ayrim odamlarda soliq to‘lashdagi mas’uliyat pastligi keltiriladi. Bu jarayonda soliq organlariga katta vazifalar yuklanadi. Ya’ni ular majburlovchi emas, xizmat ko‘rsatuvchi organ sifatida namoyon bo‘lishga intilishi kerak. Agar bir fuqaro qaysidir soliqlarni to‘lamasa, soliqchi borib unga holatni, tizimni tushuntirishi lozim. Fuqaro hatto u soliq qayerdan kelib chiqishini ham bilmasligi mumkin. Lekin mutaxassis unga anglatishi muhim ahamiyatga ega.

## **ADABIYOTLAR SHARHI**

Hozirgi vaqtida mamlakatimizda soliq majburiyatlaridan soliq to‘lovchilarning bo‘yin tovashi masalasi dolzarb hisoblanadi. Xorijiy davlatlarning iqtisodiy

adabiyotlarida soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash usullarini turkumlash masalalariga katta e’tibor berilib kelinadi. Masalan, K.A.Persxalava mazkur usullarni xo‘jalik operatsiyalarining turlariga bog‘liq ravishda turkumlashni tavsiya qiladi<sup>1</sup>. Lekin mazkur yondoshuv bir qator kamchiliklarga ham ega. Jumladan, muallif soliqdan bo‘yin tovlashning ishlab chiqarish xarajatlarini o‘zgartirish usulini va xodimlar sonini rasman oshirish usulini alohida guruhlarga ajratadi. Holbuki, xodimlar sonining rasman oshirilishi korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar tannarxining oshishiga olib keladi. Chunki, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar ishlab chiqarish korxonalarida xomashyo va materiallardan keyingi o‘rinda turuvchi xarajatlar hisoblanadi. Demak, mehnat haqi xarajatlarining o‘sishi ishlab chiqarish xarajatlarining o‘sishi sifatida baholanishi mumkin.

Rus olimi I.Kucherov tomonidan taklif qilingan turkumlash mezoni ko‘proq real amaliyotga mos keladi. I.Kucherov soliqdan bo‘yin tovlash usullarini turkumlashda soliq mexanizmining elementlarini va ularning qay usulda ta’sir qilishini hisobga olishni taklif qiladi<sup>2</sup>. Ammo shuni e’tirof etish lozimki, birinchidan, soliqqa tortish obyektini noto‘g‘ri ko‘rsatish va soliqqa tortish bazasini kamaytirish imkonini beruvchi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni soxtalashtirish usullarini alohida-alohida guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq emas, chunki soliqqa tortish obyektlari xususida noto‘g‘ri ma’lumotlar berish bevosita iqtisodiy ko‘rsatkichlarni soxtalashtirish orqali amalga oshiriladi; ikkinchidan, soliq to‘lovchilarning birlamchi buxgalteriya hujjatlarida soxta ma’lumotlarning mavjudligi natijasida soliqqa tortish bazasining qisqarishi usuli I.Kucherov tomonidan taklif qilingan turkumlashda o‘z aksini topmagan.

Aronov, Kashinlar (2004) o‘zining tadqiqotida esa, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning xorij va Rossiya Federatsiyasida undirish mexanizmini o‘rgangan holda soliq to‘lashdan bosh tortgan soliq to‘lovchilar bilan ishlash siyosati, ularning huquq va majburiyatları, kelgusida har bir soliq to‘lovchi o‘z xohishi bilan soliq to‘lash majburiyati bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishgan hamda ushbu tavsiyalarni soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni undirish sohasida qo‘llab uni isbotlashgan va bir qator amaliy choralarini amalga oshirishgan.

Andreeva (2017) tomonidan soliq to‘lovchilar tomonidan soliq intizomiga rioya qilinmaslik sabablari tadqiq qilingan, soliqqa oid bilimlarni oshirishga oid usullari tahlil qilinib, soliq to‘lovchilarga davlat hamkorli sifatida xizmatni takomillashtirish usullari taklif qilingan.

<sup>1</sup> Перцхалава К. А. (1999) Выявление и первоначальный этап расследования ук- лонений от уплаты налогов или страховых взносов в государственные вне- бюджетные фонды. Дис. на соис. уч. степени к.э.н. - С. 86.

<sup>2</sup> Ковалевская Д. Е.(2000) Налоговые преступления в уголовном праве Российской Федерации. // Налоговый Вестник. - № 11. - С. 101.

Kuznesovning (2016) fikriga ko‘ra, soliq to‘lovchi davlatning hamkori, buni soliq organlari xodimlari tomonidan tushunib yetmasdan, huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining soliq savodxonligi va madaniyatini oshirib bo‘lmacligi, Kalacheva tomonidan soliqqa oid huquqbazarlikka qarshi kurashish orqali aholining soliq madaniyatini oshirish yuzasidan tadqiqot olib borib, soliq madaniyatini oshirishga to‘siq bo‘layotgan omillar va asosiy muammolar tadqiq etilgan.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tadqiqot jarayonida soliqlar to‘lashdan bo‘yin tov lash sabablari va soliqdan qochishdagi muammolardan bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar o’rganildi. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo’llanilgan xorijiy va milliy statistik rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Soliq to‘lovchilarning soliq majburiyatlarini bajarishdan bo‘yin tov lash usullarini quyidagi guruhlarga ajratgan holda turkumlash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Yuridik va jismoniy shaxslarning soliq nazoratidan chetda qolishi. Soliq nazoratini amalga oshirish maqsadida har bir soliq to‘lovchi korxonaning joylashgan o‘rniga ko‘ra, fuqarolarni esa yashash joylariga ko‘ra soliq organlarida hisobda turishlari shart.

Moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini yuritishni soliq organlaridan yashirish soliq to‘lashdan bo‘yin tov lashning juda keng tarqalgan usullaridan biriga aylangan. Ayrim hollarda korxonalar tomonidan umuman, joriy davrda moliyaviyxo‘jalik faoliyatini yuritilmaslik to‘g‘risida soxta ma’lumotlar beriladi. Shuning uchun hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi ariza qabul qilinayotganda amaldagi qonunchilikka ko‘ra xususiy tadbirkor o‘zining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi shart. Hisobga olish masalasida tashkilot tomonidan ariza berilganda tegishli tartibda tasdiqlangan quyidagi hujjatlarning bir nusxasi taqdim etiladi. Ro‘yxatdan o‘tganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, ta’sis hujjatlari va davlat ro‘yxatidan o‘tish uchun zarur bo‘lgan boshqa hujjatlar mazkur usulni amalga oshirishda tadbirkorni ro‘yxatdan o‘tkazishda soxta yoki o‘g‘irlangan hujjatlar shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar sifatida hisobga qo‘yiladi. Shunday qilib, soliq to‘lovchining moliyaviy-xo‘jalik faoliyati boshqa shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

2. Soliq to‘lovchining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatları natijalarini buxgalteriya hujjatlarida aks ettirilmasligi. Mazkur usuldan foydalanish, asosan, korxonalarining buxgalteriya hisobida ayrim bitimlarni aks ettirilmasligida namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonuniga muvofiq korxona va tashkilotlarning barcha operatsiyalari birlamchi buxgalteriya hujjatlarida o‘z aksini topishi shart. Ana shu birlamchi buxgalteriya hujjatlariga asosan buxgalteriya hisobi yuritilishi lozim. Shuning uchun ham ayrim operatsiyalarni

yashirish maqsadida soliq to‘lovchilar birlamchi buxgalteriya hujjatlarini yo‘q qiladilar yoki ularni rasmiylashtirmaydilar. O‘zbekiston Respublikasi sharoitida, tovarlarni sotish natijasida olingan naqd pullarni kassaga kirish qilmaslik holatlari mazkur usul namoyon bo‘lishining asosiy shakli hisoblanadi. Mazkur usulni amalga oshirish aholi bilan hisob-kitoblarni nazorat-kassa mashinalarisiz va xaridorlarga chek berish yo‘li bilan amalga oshirish mumkin.

3. Soliqqa tortiladigan bazani kamaytirish imkonini beruvchi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni noqonuniy o‘zgartirish yo‘li bilan soliqqa tortish obyekti xususidagi ma’lumotlarni soxtalashtirish. Amaldagi qonunchilikka muvofiq soliqqa tortish obyektlari sifatida mulk, foyda, daromad, sotilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlarning qiymati maydonga chiqadi. Soliqqa tortish obyekti soliqqa tortishning muhim elementlaridan biri hisoblanadi va u soliq yukini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Soliq to‘lovchining jismoniy yoki yuridik shaxs ekanligi, uning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishga xos bo‘lgan xususiyatlar soliqqa tortish obyektining miqdoriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa soliq to‘lovchiga noqonuniy asosda soliq yukini kamaytirish imkonini beradi. Amaldagi soliq qonunchiligidagi muvofiq har bir soliq turi bo‘yicha alohida soliq stavkalari belgilangan. Bularning ustiga soliq imtiyozlari ham soliq to‘lovchilarning har bir toifasi uchun alohida qilib belgilangan. Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashning mazkur usulidan foydalanish o‘ziga xos tarzda amalga oshiriladi, buning natijasida soliqqa tortish obyektining haqiqiy miqdori uning e’lon qilingan miqdoridan sezilarli darajada yuqori bo‘ladi.

Soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash ko‘pchilik xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni faoliyat yuritish normasiga aylandi. Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash qoidalar va qoidalarga rioya qilish bilan amalga oshiriladi, shu bilan birga soliq qonunchiligidagi har qanday bo‘shliqlarni topib, bunday kamchiliklardan foydalanadi. O‘zbekiston soliq qonunchiligidagi “soliq va boshqa majburiy to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash – soliq olinadigan foydani (daromadni) yoki soliq solinadigan boshqa ob’ektlarni qasddan yashirish, kamaytirib ko‘rsatish, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarini to‘lashdan boshqa tarzda qasddan bo‘yin tovlash, shuningdek, daromadlar to‘g‘risida deklaratsiya taqdim etmaslik yoki unga atayin noto‘g‘ri ma’lumotlarni kiritish” tushunchasidan foydalaniladi.

Soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash asosan tadbirkor va biznes bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning ma’naviyati, insoniy xususiyatlariga bog‘liq. Tadbirkor yoki jismoniy shaxs noqonuniy yoki noxolis xatti-harakatlar bilan ham faqat boylik to‘plashni, qo‘srimcha daromad olishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan bo‘lsa, u har qanday sharoitda ham qonunchilikdagi bo‘shliqlarni izlab topib, undan foydalangan holda soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashning turli-tuman usullarini o‘ylab topib, ularni qo‘llashga intiladi.

Shu sababdan ushbu sharoitlarda soliq to'lovchilar tabiiy munosabati opportunistik xususiyatga ega bo'ladi, bunda ular soliqlarni jazo sifatida qabul qiladilar va ijtimoiy boyliklarni moliyalashtirishda qatnashishni minimallashtiradilar. Tadbirkorlar davlatning soliqlardan oladigan foydasi yoki uni to'lanmasligidan ko'rildigan zarari to'g'risidagi mavhum taqqoslashlardan emas, balki risklar borasidagi muayyan masalalarga amal qiladilar: soliq summasi uni to'lamaslik evaziga solinadigan sanksiyalardan qanchalik kattaligini taqqoslaydi. Agar to'lamaslik uchun jazo og'ir emas, buni aniqlash ehtimoli juda past bo'lsa, ko'pchilik tadbirkorlar soliq to'lashdan qochish yoki soliq qonunchiligi va soliq undirish texnikasidagi kamchiliklardan foydalanib, soliqlarni minimallashtirishga harakat qiladilar.



### **1-rasm. Soliqlarni to'lashdan bo'yin tov lashning sabablari<sup>3</sup>**

Shunday qilib, qonunchilikdagi kamchiliklar, uni buzish jazosiz qolishi va nazoratning sustligi soliq to'lashdan bo'yin tov lashga imkoniyat yaratadi. Yuqori soliq stavkalari to'g'risidagi keng tarqalgan bahonalar esa asossizdir. Ammo soliqqa tortishning yuqori chegarasi mavjud bo'lib, soliq stavkasi o'sha darajadan oshib ketsa, iqtisodiy faoliyat sustlashib boradi.

Soliq to'lashdan bo'yin tov dashning sabablarini tahlil etishda ikki xil yondashuvdan foydalanish zarur: soliqlarni "yangi boylar" tomonidan to'lanmasligi va soliqlarni sobiq ittifoq korxonalari direktorlari tomonidan to'lanmasligi. "Yangi boylar" islohotlardan dastlabki davrdagi yarim jinoiy kooperativ harakatda faoliyat yuritgan tadbirkorlar bo'lib, psixologik sabablarga ko'ra soliq to'lashni xohlamaydilar.

<sup>3</sup> Abulqosimov H.P., Muminov N.G. (2020). Xufyona iqtisodiyot: o'quv qo'llanma.—T.: Yangi nashr, .304-b.

Ular hech qachon davlatga hech narsa to‘lamaganlar, bunga ularning jinoiy falsafasi va tadbirkorlik fe'l- atvori yo‘l qo‘ymaydi. Ular qonunchilikka rioya qiladigan fuqarolarga ongli ravishda aylanishlari uchun ma’lum bir davr kerak, hech bo‘lmaganda davlatdan o‘z mulki himoyalanishini talab qilish huquqiga ega bo‘lish uchun. Davlat, soliq nazoratini ham hisobga olgan holda, qanchalik tez kuchaysa, ularning psixologik yetilishi shunchalik tez amalga oshadi.

Soliq to‘lashdan bo‘yin tovash – yuridik yoki jismoniy shaxsning faol harakatlari evaziga o‘zini u yoki bu soliqni turini to‘lovchilari qatoridan chiqarib (ya’ni, shu soliqni to‘lamasdan) o‘z soliq majburiyatlarini minimallashtirish shaklidir. Soliqlardan bo‘yin tovashga misollar sifatida soliq imtiyozlarini olish maqsadida sun’iy bitimlar tuzish, soliq stavkalarini pasaytirish uchun biznes tuzilmalari shakllarini o‘zgartirish, soliq imtiyozlarini taklif etadigan mamlakatlarga yoki offshor zonalarda korxonalar tashkil va boshqalarni ko‘rsatish mumkin (2-rasm).

### **Soliqlardan bo‘yin tovashning asosiy shakllari**

Soliq  
imtiyozlarini  
olish  
maqsadida  
sun’iy bitimlar  
tuzish

Soliq  
stavkalarini  
pasaytirish  
uchun biznes  
tuzilmalari  
shakllarini

Soliq  
stavkalarini  
pasaytirishni  
taklif  
qiladigan  
mamlakatlard

#### **2-rasm. Soliqlardan bo‘yin tovashning ko‘p tarqalgan shakllari<sup>4</sup>**

Soliq imtiyozlaridan foydalanish soliqlar to‘lashdan bo‘yin tovashning oddiy sxemalarini yaratish imkoniyatini beradi. Hukumat vakili bilan siyosiy bahslar orqali ham soliq majburiyatlarining bir qismi yoki barchasidan ozod bo‘lish mumkin. Bunda soliq imtiyozlari taqdim etilishini so‘rashda muhim argument bo‘lib korxonaning butun mamlakat yoki muayyan hudud uchun alohida ahamiyatga egaligi, ya’ni mahsulotning strategik ahamiyati, bandlikni ta’minalash, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish keltiriladi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovash bilan samarali kurashish uchun, birinchi navbatda, nega ko‘pchilik soliq to‘lovchilar uni to‘lashdan bo‘yin tovashni tanlashlari sababini aniqlab olish muhimdir. O‘zining iqtisodiy

<sup>4</sup> Abulqosimov H.P., Muminov N.G. (2020). Xufyona iqtisodiyot: o‘quv qo‘llanma.– T.: Yangi nashr, .304-b.

mohiyatiga ko‘ra soliqlar har bir fuqaroga beriladigan ijtimoiy boyliklar evaziga ixtiyoriy to‘lovlardir. Ammo amaliyotda masalaning bunday hal etilishiga bir necha sabablar to‘sqinlik qiladi.

Birinchidan, “biletsiz” muammosi yuzaga keladi. Ba’zi individlar soliqlarni to‘lashdan bosh tortish maqsadga muvofiq, deb hisoblaydilar, bunga sabab ko‘pgina soliq to‘lovchilar fonida ularning bunday faoliyati sezilmaydi, va taqdim etiladigan ijtimoiy boyliklar hajmiga ham ta’sir ko‘rsatmaydi, degan hayol bo‘ladi.

Ikkinchidan, texnik sabablarga ko‘ra katta guruhlarda hamjihatlik bilan qaror qabul qilishning iloji yo‘qdir. Ko‘pchilikka bo‘ysunish qoidasi esa soliq diskriminatsiyasi uchun ob’ektiv shart-sharoit yaratadi va jabr ko‘rgan soliq to‘lovchilarni ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirishda ishtirok etishda ijtimoiyadolat va iqtisodiy samara nuqtai nazaridan bo‘yin tovslashga undaydi.

Xufiyona iqtisodiyot rivojlanar ekan, legal iqtisodiyot hajmiga ham albatta salbiy ta’sir o‘tkazadi. Shu sabab bu ulkan muammoni bartaraf etish uchun faqatgina davlat imkoniyatlari bilan kurashish yetarli bo‘lmaydi. Jamiyatdagi boshqa kuchlar, birinchi navbatda, tadbirkorlar, keng jamoatchilik bu muammoga o‘z muammosi sifatida qarasagina, uni hal qilishda sezilarli natijalarga erishish mumkin.

Buning uchun tadbirkorlar bilan ochiq muloqot orqali bugun ularning ishiga xalaqit berayotgan muammolar nimadan iboratligini aniqlash zarur. Shundagina kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish imkon paydo bo‘ladi. Bu jarayonlarda barcha, xususan, siyosiy partiyalar, mas’ul idoralar, biznes sub'yektlari va keng jamoatchilik o‘zaro ishonchga asoslangan muloqot maydonlarini shakllantirishlari lozim. Ushbu maydon mavzuga doir og‘riqli muammolarni qo‘rqmasdan ko‘tarib, ularga mos yechimlarni taklif qila olsa, hukumat va xalq o‘rtasida hamkorlik yuzaga kelsa, albatta kamchiliklar asta-sekin bartaraf bo‘ladi. Lekin bizda avvalo, aynan o‘sha birdamlikni shakllantirish kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: “Adolat”, 2020
2. O‘zbekiston Respublikasi Budget Kodeksi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi 913-XII-sodan Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrdagi “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” O‘RQ-657-son Qonuni <https://lex.uz/docs/-5186044>
5. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-dekabrdagi “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” O‘RQ-742-son Qonuni <https://lex.uz/docs/-5801127>

6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston , 2017. – 104 b.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to‘g‘risidagi” 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son farmoni
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni savaralihamalga oshirish tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 6 oktyabrdagi PF-6079 sonli Farmoni
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-73-son qarori
- 10.O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Soliq ma’muriyatichiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-455-sonli qonuni, 2017 yil 18 dekabr
- 11.Vahobov A., Jo‘raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T: “Sharq”, 2009. - 448 b.
12. Alimardonov M., To‘xsanov Q. Soliq nazariyasi. –T.: “O‘zbekiston Yozuvchilaru yushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti”, 2005. -175 b.
13. Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. –T.: “Fan va texnologiyalar markazi”, 2003. -247 b.
- 14.Аронов А. ва Кашин В. (2007) Налоги и налогообложение М.: Магистр.
- 15.Андреева В.А. (2017) Повышение налоговой грамотности и культуры участников налоговых правоотношений. Экономика Интерактивная наука |4 (14). стр.136-140.
- 16.Кузнецов А.Л. (2016) Налоговая политика и налоговые органы: реальное состояние, проблемы, перспективы (региональный аспект). [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://vasilieva.narod.ru/zurnal/>
- 17.Перцхалава К. А. (1999) Выявление и первоначальный этап расследования ук- лонений от уплаты налогов или страховых взносов в государственные вне- бюджетные фонды. Дис. на соис. уч. степени к.э.н. - С. 86.
- 18.Ковалевская Д. Е.(2000) Налоговые преступления в уголовном праве Российской Федерации. // Налоговый Вестник. - № 11. - С. 101.
- 19.Abulqosimov H.P., Muminov N.G. (2020). Xufyona iqtisodiyot: o‘quv qo‘llanma.– Т.: Yangi nashr, .304-b.
- 20.Mamanazarov A.B., Mahalliy byudjet va soliq. Monografiya, Marifat-madadkor; Toshkent 2004 yil, 79-80 bet
- 21.<http://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
22. <https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti
23. <http://www.soliq.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi sayti
24. <http://www.stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti